



QADIMGI XITOIY DINLARI VA MADANIYATI

Yusupova Muxlisa Nurali qizi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
yusupovarslon3@gmail.com
Tel:+998952551803.

Ravshanova Marjona Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
ravshanovaktam03@gmail.com
Tel:+998930893719.

Jo'raqulova Mukambar Tursunmurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
mukambarjurakulova@dtpi.uz.
Tel:+998915120809.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10405665>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-December 2023 yil
Ma'qullandi: 15- December 2023 yil
Nashr qilindi: 19- December 2023 yil

KEY WORDS

Sima Syan, daosizm, kanfutsiylik, sintoizm, iyeroglif, Xuanxe, Veyxu, Tibet-Birma, in yozuvi, Syuy Yuan

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qadimgi Xitoyning miloddan avvalgi va milodiy ilk asrlarda mavjud bo'lgan dini va madaniyati haqida manbalar asosida obyektiv va subyektiv yoritishga qaratilgan. Qadimgi davrdan to hozirgi kungacha Xitoy sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Ushbu maqolani yozishdan maqsad bugungi kunda ommaviy madaniyat ta'sir ko'rsatish xavfi mavjud bo'lgan bir davrda har bir millatning va davlatning ayniqsa qadimiy ilk sivilizatsion maskanlardan biri bo'lgan Xitoy o'lkasi madaniyati va dinini har tomonlama tadqiq etishga asoslangan.

This article focuses on the objective and subjective coverage of the religion and culture of Ancient China in the BC and early AD centuries. There is evidence that China has served as one of the centers of civilization from ancient times to the present day. The purpose of writing this article is based on a comprehensive study of the culture and religion of China, which is one of the most ancient early civilization centers of every nation and state, at a time when mass culture is at risk of influence.

Keywords: Sima Xiang, Taoism, Confucianism, Shintoism, hieroglyphs, Huanghe, Weihi, Tibeto-Burma, In script, Xu Yuan

В данной статье основное внимание уделяется объективному и субъективному освещению религии и культуры Древнего Китая в веках до нашей эры и начале нашей эры. Есть свидетельства того, что Китай с древнейших времен до наших дней служил одним из центров цивилизации. Цель написания данной статьи основана на комплексном изучении культуры и религии Китая, который является одним из древнейших центров ранней цивилизации каждой нации и государства, в то время, когда массовая культура находится под угрозой влияния.

Ключевые слова: Сыма Сян, даосизм, конфуцианство, синтоизм, иероглифы, Хуанхэ, Вэйху, Тибето-Бирма, письменность, Сюй Юань.

Xitoy davlati qadimgi ming yillikdanoq ilk inson qadami yetgan makonlardan edi. Bu yerda miloddan avvalgi asrlarda sinantrop va lantyan odamlar manzil makonlari topilganligi diqqatga sazovordir. Shu tariqa hatto bugungi davr olimlari tomonidan ham e'tirof etilgan yuksak madaniyatga asos solishgan. Xitoyda din ham o'ziga xos bo'lib bu davrda hattoki hozirda ham ushbu davlatda mahalliy dinlar, xususan ular orasida konfutsiylik, daosizm, sintoizm kabilari yetakchi o'rin egallaydi. Keyinchalik esa Hindistonda buddizm dinining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi natijasida Xitoy hududida ham budda dini asosiy o'rin egallaydi.

Asosiy qism. Xitoy markaziy va sharqiy Osiyodagi eng qadimgi mamlakatlardan biridir. Miloddan avvalgi IV-V ming yilliklarda Xuanxe daryosining o'rta oqimida bir necha neolitik madaniy markazlar paydo bo'lgan. Xitoyning sharqiy sohillari-Sizyan Shu va Chjeszyan provensiyalarida kashf etilgan Sinlyangan madaniyati keyinchalik „Sharqiy ” nomli etnoslarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Usha davrda Xuanxe daryosining bosh irmog'i Veyxa vodiysida mashhur Yanshao neolitik dehqonchilik madaniyati paydo bo'lib, Xitoy xalqining eng qadimgi ajdodlari asosi bir qismi esa Tibet-berma etnoslarining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Qadimgi Xitoyliklar o'zlarining ajoyib adabiyotiga eta bo'lgan. Qadimgi Xitoy adabiyotining shakllanishi xalq og'zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuv kelib chiqqach yozma adabiyot shakllangan va rivoj topgan.

Xitoyliklar ajoyib afsona, ertak, rivoyat, qo'shiq, topishmoq va ko'plab maqollar yaratganlar. Dostonlar Xitoyning qadimgi adabiyotida katta o'rin tutadi. Xitoy adabiyotida esa diniy, tarixiy va falsafiy mavzular keng o'rin olgan.

Xitoyda miloddan avvalgi IV - milodiy IV asrlarda Soy Yuan, Semasiyan kabi mashhur yozuvchi va shoirlar ijod etishgan. O'sha davrning istidodli shoirlaridan biri Syuy Yuan bo'lib, u miloddan avvalgi IV asrda Chu podsholigida yashab ijod qilgan. Bu davrda yashagan yana bir Xitoylik mashhur adib, tarixchi Sima Syan bo'lib, miloddan avvalgi 145-90- yillarda yashab ijod qilgan. Uning „Tarixiy xotiralar” asari mavjud. Qadimgi Xitoyda musiqa, raqs, qo'shiq san'atiga qiziqish erta boshlangan. Ularda musiqa asboblarning torli, urib, puflab chalinadigan turlari keng tarqalgan. Xitoycha qo'shni O'rta Osiya xalqlarining arfa kabi musiqa asboblari milodiy I - II asrlarda kirib borgan. [1]

Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari eramizdan avvalgi XIV - XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi byumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir.

In belgilarining hozirgi Xitoy iyrogliflaridan uch xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan, bir belgining yozilishida ko'p xilma- xillik mavjud. Uchunchidan, belgini qatorning nisbiy yunalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining eramizdan avvalgi I ming yillikda Chjoular tomonidan o'zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo'ymadi. Eramizdan avvalgi II- I ming yilliklarda iyrogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi, belgilarni yozishning yangi xusnixati paydo bo'ldi. [2]

Qadimgi Xitoyda diniy e'tiqodning shakllanishi ibtidoiy davrglarga borib taqaladi. Shan-In davridagi diniy e'tiqodlar ibtidoiy din shakllaridan kelib chiqqan. Qadimgi Xitoyliklar Quyosh, Oy, Osmon, osmon jismlari sayyora va yulduzlarga topingan. Shu bilan birga ular tabiat va

tabiat hodisalari, daraxt larga sig'inib to va daryolarni ulug'laganlar. Odamlar ana shu ulug'langan narsalarga e'tiqod qilgan. Xitoyliklar e'tiqodiga ko'ra, har bir narsa va hodisaning alohida xudolari bo'lgan. Bu xudolar alohida nomlar bilan atalgan. Ularda Oliy xudo Di bo'lib, u odamlarga qurg'oqchilik, suv toshqinlari yuborgan yoki baxt ulashgan. [3]

Qadimgi Xitoy dinining azaliy prinsiplaridan yana biri, butun mavjudotni ikki ibtido-ga-in va yanga ajratish bo'ldi. Bu tushunchalarning har biri ko'p qirrali, ammo birinchi navbatda, yan erkaklik ibtidosini anglatadi. Yan yorug'lik, yorqinlik, mustahkamlik va kuchlilik kabi sifatlar bilan bog'liq holda qaraladi va eng umumiy ma'noda ijobiy sifat hisoblanadi. Ayollik in esa oy bilan bog'lanib, barcha qorong'u va kuchsiz sifatlar ibtidosi deb qaraladi. Ikkala ibtido ham bir biri bilan uzviy bog'langan iyun tarzda bir-biriga ta'sir ko'rsatadi va butun ko'rinib turgan olam shu ta'sirning natijasi hisoblanadi.

Miloddan avvalgi III asrda Xitoy ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida jiddiy o'zgarishlar boshlanadi. Bosqichma - bosqich, asta - sekin quldorlik barham topib boradi. O'ziga xos, „sharqona“ ko'rinishdagi feodal munosabatlar shakllanadi. Ma'naviy hayotda jiddiy o'zgarishlar yuz beradi, davlat tizimi va uning ma'naviy asoslari qayta tashkil qilinadi. Shu ma'noda Konfutsiylikning paydo bo'lishi Xitoy tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. [4]

Xulosa Qadimgi Xitoy davlati madaniyati va dini nafaqat Xitoyning balki butun sharq va hattoki g'arbning ham madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bunda Xitoy madaniyatining eng ilg'or jihatlarini Yevropa mamlakatlarida ko'rishimiz mumkin. Biz bugun butun dunyoda uchratadigan kompas, mashhur zilzilani aniqlovchi seismograf ham aynan Xitoylik olimlar tafakkurining mahsulidir.

Qadimgi Xitoyliklar o'lgan ajdodlari ruhiga ham e'tiqod qilgan bu fanda animizm deyiladi. Tog'-toshlar, o'simlik, daraxtlar, osmon jismlari, va har xil buyumlarga sig'inish esa fetishizm deyiladi. Ayni paytda ular hayvon va turli jonivorlarga ham sig'inganlar bu esa totemizm deb ataladi. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Xitoyga Hindistondan o'rta Osiyo orqali budda dini kirib kelgan va yoyilgan. Shunday qilib, Xitoyda diniy e'tiqod xilma hil shaklda bo'lib, uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan qadimgi Xitoyliklar juda qadim zamondan boshlab o'zlariga xos yuksak madaniyat yaratib, jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent Tafakkur nashriyoti 2016. B 322.
2. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim) Toshkent 2009. B 204.
3. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent Tafakkur nashriyoti 2016. B 325.
4. Ergashev Shu. Qadimgi sivilizatsiyalar. Toshkent „O'zbekiston“ 2016. B 221 - 222.
5. in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 21-29.
6. Nazirov, B., Qalandarova, M., & Maxmaraimova, P. (2023). O'RTA OSIYO VA QADIMGI XITOIY MUNOSABATLARI: BUYUK IPAK YO'LINING VUJUDGA KELISHI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 27-30
7. Nazirov, B. (2022). БУГУНГИ КУНДА СУРХОНДАРЕ ВИЛОЯТИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТГА ЭТИБОР: ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.
8. Менглибоев, А. Х. (2018). СТРАТЕГИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В БОРЬБЕ С МЕЖДУНАРОДНЫМ ТЕРРОРИЗМОМ. Гуманитарный трактат, (29), 40-43.

9. Mengliboyev, A., & Qalandarova, M. (2023). ORIYLAR MUOMMOSI: ORIY QABILALARINING HINDISTONGA KIRIB KELISHI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 167-170.
10. Mengliboyev, A. (2022). СУРХОН ВОХАСИДА ҚИЗИЛ АРМИЯ БОСҚИНИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ БОШЛАНИШИ. Adad Plyus.
11. Mengliboyev, A. (2022). ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ БУХОРОДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎРНАТИЛИШИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА, 1920-1930 ЙИЛЛАР). Scienceweb academic papers collection.
12. Mengliboyev, A. (2021). СУРХОН ВОХАСИДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТ П НАТИЖАЛАРИ ВА ОҚИБАТЛАРИ.

